

**BUYUK ALLOMA ABU RAYHON BERUNIYNING BOY ILMIIY MEROSI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*  
**Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li**  
[nurmuhammadu06@gmail.com](mailto:nurmuhammadu06@gmail.com)

*Tel: +998903777796*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*  
**Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi**  
[ruxshonamamasaidova518@gmail.com](mailto:ruxshonamamasaidova518@gmail.com)

*Tel: +998944611363*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*  
**Nasullayeva Shahnoza Muxtor qizi**  
[shahnozanasullayeva0@gmail.com](mailto:shahnozanasullayeva0@gmail.com)

*Tel: +998916311207*

**Annotatsiya:** O'rta Osiyo ilm fanini yuksaltirish va birinchi Renesans poydevori qurilishiga katta hissa qo'shgan olimlarning boy ilmiy merosini o'rganish va kelajak avlodga yetkazish borasida Mustaqillik yillarida juda ko'p izlanishlar olib borilmoqda. Ana shunday qomusiy olimlardan biri bo'lgan Abu Rayhon Beruniy O'rta asrlar ilm faniga va ko'p sohalarning rivojiga katta hissa qo'shgan. Mazkur maqolada olimning hayoti va ijodi, boy ilmiy merosi hamda Mustaqillik yillarida alloma hayotiga qaratilgan e'tibor haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, Afrig'iylar, "Kitob al-ansob", geodeziya, kartografiya, "Saytdan", Shaxrizuriy, Qiftiy, Termiz, Tehron, Jurjon.

**Аннотация:** В годы Независимости проводится множество исследований по изучению и передаче следующему поколению богатого научного наследия учёных, внесших большой вклад в развитие науки Центральной Азии и закладывание фундамента первой Ренессанс. Абу Райхан Беруни, один из таких ученых-энциклопедистов, внес большой вклад в науку Средневековья и развитие многих областей. В данной статье представлена информация о жизни и деятельности учёного, его богатом научном наследии, а также внимании, уделяемом жизни учёных в годы Независимости.

**Ключевые слова:** Абу Райхан Беруни, африканцы, «Китаб аль-Ансаб», геодезия, картография, «Сайтдан», Шахризури, Кифти, Термиз, Тегеран, Джурджан.

**Abstract:** In the years of Independence, a lot of research is being carried out in the process of conveying the rich scientific heritage of the research of scientists who made a great contribution to the development of Central Asian science and the construction of the foundation of the first Renaissance. Abu Rayhan Beruni, one of the

encyclopedic scientists, made a great contribution to the science of the Middle Ages and the development of many fields. This article provides information about the life and work of the scientist, his rich scientific heritage, and attention to the life of the scholar during the years of Independence.

**Key words:** Abu Rayhan Beruni, Africans, "Kitab al-Ansab", geodesy, cartography, "Saitdan", Shahrizuri, Qifti, Termiz, Tehran, Jurjan.

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot tahlili shuni ko'rsatadiki insonning shakllanishida muhit ijtimoiy-siyosiy sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ana shunday muhitda tug'ilib o'sgan allomalarimiz orasida Abu Rayxon Beruniy o'z ilmiy tafakkuri va zehni bilan zamon talabiga moslasha olgan olimlardan biridir. Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentabrda Xorazmning qadimgi Kot shahrida tug'iladi. Kot shahri X asrda afriqiy xorazmshohlar sulolasining poytaxti va O'rta Osiyoning eng yirik savdo markazlaridan biri edi. Xorazm bilan Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq davlatlari, Kavkaz va Sharqiy Yevropa o'rtasida savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlangan edi. Musulmon Sharqining mashhur olimi Abdulkarim as-Sam'oniy "Kitob al-ansob" ("Nasablar kitobi") nomli asarida Abu Rayhon Beruniyning Xorazmning tashqari qismiga oid nisbatini ta'riflaydi. Kimki shahardan tashqarida tug'ilgan bo'lsa, bunday odamni "falonchi beruniy" deydilar. Munajjim Abu Rayhon shunday nisba bilan mashhurdir [1:7]. Beruniyning o'zi qoldirgan ma'lumotlarda aytilishicha, onasini o'tin teruvchilik bilan tirikchilik qilgan. Bu ma'lumotdan xulosa qiladigan bo'lsak, alloma oddiy, faqir bir oilada tug'ilgan voyaga yetgan. U yoshligini xotirlab yozganlardan birida: "Men Yunonistondan kelib qolgan bir odamdan turli o'simliklarning yunonchada qanday atalishini so'rardim. Bilganlarimni yondaftarchamga batafsil yozib borar va yodlab olardim", deydi. Abu Rayhon Beruniy yoshligidan islom dunyosida o'tgan ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham puxta egallab borgan. Abu Rayhon Beruniy O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi bo'lgan. U bir vaqtning o'zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, etnograf, biolog, o'simlikshunos, ma'danshunos, tarixchi, dinshunos, adabiyotshunos, faylasuf, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. U haqida olimning o'z davrida shug'ullangan sohasini aytishdan ko'ra, shug'ullanmaganlarni sanash osonroq edi, deyiladi [2:4]. O'zining ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini mukammal egalladi. Keyinchalik olimning Hindistonda bir muddat hayot kechirishi unga hind madaniyati bilan chuqur tanishish va sanskrit tilini o'rganib olish imkonini berdi. Qadimgi yunon klassik ilmi bilan tanishdi. U zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oladi. Abu Nasr Mansur ibn Iroq atronomiya, geometriya va matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. U Beruniyni Yevklid geometriyasi va Ptolemeyning astronomik ta'limoti bilan tanishtiradi. Ustoz bilan

shogird o'rtasidagi do'stlik uzoq vaqtlargacha davom etadi. Beruniy ustozining nomini hamma vaqt zo'r hurmat bilan tilga oladi. Umuman Beruniy ilmiy masalalar, tarixiy voqealar va zamondoshlariga nisbatan baho berishda o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu sabab hayotda ko'p aziyatlar chekkan, og'ir turmush tarzini boshidan o'tkazgan, ammo nechog'liq mashaqqatli bo'lmasin, oliy maqsad sari intilishda davom etgan, o'zining ishonch-e'tiqodidan aslo chekinmagan. Abu Rayhon Beruniy ilm ummonining nechog'liq poyonsiz ekanini uning ulkan qomusiy olim sifatida yaratgan asarlari yaqqol ko'rsatib turibdi. Manbalarga ko'ra o'lim o'zidan 150 dan ortiq asarlarida jamlangan fan sohasidagi izlanishlaridan iborat ilmiy merosini yaratib qoldirgan. Uning 30 dan ortiq qo'lyozma ko'rinishidagi kitoblari yetib kelgan xolos. Ulug' olimning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Saydana", "Astronomiyaga kirish", "Mas'ud qonuni", "Geodeziya" "Jonni davolovchi quyosh kitobi", "Ikki xil harakatning zarurligi haqida", "Ko'paytirish asoslari", "Ptolemey "Almagest"ning sanskritchaga tarjimasi", "Foydali savollar va to'g'ri javoblar", "Farg'oniy elementlariga tuzatishlar", "Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma'lumotlar", "Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi", "Ibn Sino bilan yozishmalar" singari asarlari jahon fani va madaniyatining yuksalishida ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Mazkur asarlar musulmon Sharq madaniyatining so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bayhaqiy, Shaxrizuriy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy kabi mashhur olimlarning arab va fors tillarida yozilgan asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi[3:8]. 995 yil Kotda Afrika hukmronligi tugagach, Beruniy Xorazmni tark etadi. U bir muddat Eronning Rey shahrida yashagan. Keyinchalik u Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon (yoki Gurgon) shahriga keladi. Bu yerda Ziyvorlar sulolasidan Qobus ibn Vashmgir (928-1024) hukmronlik qilgan. Qobus 998 yilda hokimiyat tepasiga kelgan. Demak, Beruniy Raydan Jurjonga taxminan 1000 yil avval kelgan. Ana shu munosabat bilan olim "O'tmish xotiralari" asarini yozadi. Shu munosabat bilan u "Karmatlar yoki choponli odamlar tarixi" asarini ham yozgan. Lekin bu ish bizgacha yetib kelmagan. "O'tmish yodgorliklari" asari o'z davrida keng tarqalgan. U qayta-qayta ko'chirildi. Shu tufayli Beruniyning buyuk olim sifatidagi shuhrati kengaydi. Qobus ibn Vashmgir Abu Rayhon Beruniyga vazirlikni taklif qiladi. Olim bu taklifni rad etdi. Beruniy Xorazmga qaytadi. U Abu Abbas Ma'mun ibn Ma'mun (1009—1017) saroyida olim va podshohning siyosiy maslahatchisi bo'lib ishlagan. Beruniy bu haqida «Tarixi Xorazm» asarida batafsil yozgan. Bu asar bizga yetib kelmagan. U faqat Bayhaqiyning "Mas'ud qissasi" kitobida mavjud[4:5]. Beruniy Mamun "Akademiyasi"ning asosiy a'zosi hisoblanib, u yerda 7 yil davomida ilmiy ish olib borib, ko'plab ilmiy masalalarni tezda hal qildi. Xorazm 1017-yilda zolim Shoh Sulton Mahmud tomonidan bosib olingan. Ko'pgina olimlar qatag'onga uchradi. Bu orada Ibn Sino Gurg'opga yashirinadi, Beruniy qo'lga olinib, G'azna shahriga jo'natiladi. U yerda Sulton Mahmud olim Beruniy

Mahmudning iltimosiga ko'ra ketishga va taslim bo'lishga majbur bo'lgan bo'lsa-da, Beruniy qiyinchiliklarni yengib, mashaqqatlarga chidadi va mashhur bo'ldi. Bu yillarda u Astronomiya to'g'risida va planetalar haqida kitoblar yozdi. Sulton Mahmudning poytaxti G'azna bo'lib, u Hindistonning shimoliy va g'arbiy hududini o'z mamlakatiga qo'shib oldi. Beruniy Hindistonda 10 yil yashadi. U hind xalqlarining madaniyati va san'ati, urf-odatlarini va adabiyotiga juda qiziqib, ularni o'rganishga kirishgan, sanskrit tilini o'rgangan, hind olimlarining ayrim asarlarini arab tiliga tarjima qilgan. Yunon matematiklarining eng yirik asarlari hisoblangan Evklidning "Negizlari" va Ptolemeyning "Almagest" asarlarini sanskrit tiliga tarjima qildi. 1031 yilda o'zi to'plagan materiallar asosida o'zining mashhur "Hindiston tarixi" kitobini yozib tugatdi[5:10]. Bizga qadar olimning qo'lyozma ko'rinishdagi qirqqa yaqin kitobi yetib kelgan, xolos. Asarlar ko'pchiligi o'zbek, rus, fors, nemis, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Olimlarning eng so'nggi hisobiga ko'ra Beruniy asarlaridan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi iqlimga, 3 tasi mineralogiyaga, 4 tasi falsafaga, 1 tasi fizikaga, 4 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 28 tasi adabiyotga o'girdir. Shogirdi Abul Fadl as-Saraxsiy ma'lumoti bo'yicha Beruniy 1048-yil 11-dekabrda vafot etadi. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkent, Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand, Termiz, Farg'ona, Andijon, Guliston kabi qator shaharlardagi ko'chalar uning nomi bilan atalgan. Alloma tavallud topgan ona shahriga 1975-yil uning nomi berilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti ham Abu Rayhon Beruniy nomi bilan ataladi. Fan va texnika sohasida Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etilgan. Shuningdek, poytaxtimizdagi metro bekatlaridan biriga allomaning nomi berilgan. Toshkent va Texronda unga haykal o'rnatilgan. 1970-yili oydagi kraterlardan biri, 1986-yil 9936-raqam bilan belgilangan asteroid Beruniy sharafiga uning nomi bilan atalgan. 1973-yili yurtimizda alloma tavalludining 1000 yillik yubileyi nishonlangan edi. Keyin esa 2023-yil UNESCO ishtirokida xalqaro miqyosda bo'lib o'tgan 1050 yillik yubileyi keng nishonlandi.[6:13].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Saad Abd al-Karim ibn Muhammad as-Somani at-Tamimiy al-Marvaziy "Kitob al-ansab" yoki "Nasabnomalar kitobi" Istanbul.
2. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. "Abu Rayhon Beruniy" 2023.
3. "Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosining jahon fani rivojidadagi o'rni" T. "Ma'naviyat" 2023.
4. A. Qayumov "Beruniy va adabiyot" T. 1974.
5. M. Axadova "Beruniy va uning matematikaga oid ishlari" T. 1976.
6. Pirmat Shermuhammedov. "Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati". T.